

HABIB SA'DULLA IJODIDA OILA TASVIRI

Ahmadjon Muxtorjonov

Namangan muhandislik-qurilish instituti magistranti

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada mashxur shoir Habib Sa'dullaning oilaviy masalalar, ota va ona muqaddasligi haqida yozilgan she'rlarni dolzarbligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: *oila, ota, ona, ahloq, odob, tanlangan asarlar, izoh, oilaviy masalalar, o'xshatishlar.*

Qadimgi arab ulamolari, donishmandlaridan shunday bir ibratli gap bor: "Qaysiki shoir ahloq va odob masalalarini ulug'lasa, unda u sevisga arziydi"

Arablar ahloqni inson ezguliklarini mujassam etgan birlik, odobni esa, ahloqning buyurgan axborotining natijasi deya tariflashar ekan, har ikkisini mujassam bo'lishini oila va undagi muhit bilan bog'lashadi. Sog'lom va barkamol oilaning jamiyatda ko'payib borishiga, albatta, e'tiqod voizlari yoki o'sha yuqorida takidlagan turdagi shoirlarning tadbiqlari ta'sir ko'rsatadi. Aynan, shuning uchun hamki, shoirlarni bu ezgu ishlari uchun xalq sevadi va ardoqlaydi deyish mumkin.

Ana shunday hislati uchun sevilgan shoirlardan biri namanganlik buyuk so'z ustasi, Habib Sa'dulla bo'ladi. Habib Sa'dulla umri davomida o'nlab she'riy kitoblarga muallif bo'lgan bo'lsa, yuzlab misra she'rlar bitgan bo'lsa hamki, uning ijodida otani, onani, oilaviy masalalarni ardoqlab yozilgan she'rlar alohida o'rin egallagan. Shunday she'rlardan biri, "Tanlangan asarlar" kitobi 1-jildidan olingan "Otamga" she'ri hisoblanadi:

Qattol jang kunlari, aziz otajon,
Yo'l olgan chog'ingiz frontga tomon,
Peshonamdan asta o'pgan ekansiz:
Ko'rishguncha xayr, degan ekansiz.

Ushbu misralarda avvalo, vatanga boʻlgan muhabbat, yovuz qattol fashizmga qarshi targʻibot boʻlsada, otaning bolasiga nisbatan mexri va aynan, oʻlim tomon yurish qilayotganida, farzandini peshonasidan oʻpishi sheʻriy, tasviriy ifoda qilib olingan. Bundan tashqari onani oilada ardoqlashga doir ham shoir kitoblaridan sheʻriy misralar topish mumkin. Aynan “Ikki maktubda” shoir onasiga boʻlgan hurmad va ehtirom bilan birga, sogʻinchini ham boshqalardan farqli ravishda bir sarlavhadagi ikki sheʻr bilan ifodalaydi.

Qalbidan qoʻymayman seni biror on.

Goho bilim izlab, goho zarurat,

Goho Vatan amrin etmoq-chun ijro.

Farzanding qoshingda etolmay xizmat.

Shoir “Ikki maktubning” birinchisidan olingan sheʻriy misralarda onasini hech qachon qalbidan qoʻymasligi, goho bilim izlab yoki vatani, ishi deb chet elga hizmat safarlariga borsa ham, xorij ajoyibotlari hayolini tortsa ham har nafasda mehribon onasini oʻylashini yozadi. Ushbu misralardan olingan yaʼna bir adabiy maʼno esa, aynan vatanga hizmat qilishdek ulugʻ ishni amalga oshirmoqlik paytida, lahza onasi hizmatidan chalgʻisa, unga uzur aytib, kechirim soʻramoqda.

Shoir sheʻrlarida nafaqat ota onani qadrlashdek oilaviy qadriyatlarni balki, ana shu oilani ajralmas qismi, malikasi boʻlgan ayollarni ham eʼzozlashdek muhim ishlarni oddiygina biroq, eng samimiy qoʻshiq boʻlgan, alla haqida aytilgan sheʻrda eslab oʻtadi:

Har kecha necha bor “inga-inga”lab,

Toʻngʻichimiz qilsa uyqungni notinch.

Mijja qoqmaslikni etsa-da talab,

Kuzlaringda aslo kurmayman ukinch.

Injiqligin olmay koʻnglingga malol,

Boshi uzra sohib koʻzlaring nurin.

Uni allalaysan asta va xushhol,

Oʻz allangga qoʻshib yuraging qoʻrin.

Jonimdan sevganim, ey qalbi chaman,
O'g'limga onasan, mehring bir daryo.
Qarshingda o'tirib she'r yozmoqdaman,
Satrimga allangdan olaman jilo.
Meni tinchitmagan shu qaynoq ilhom,
Seni uxlatmagan pokiza mehr.
Qalblarimiz naqshi chin ahdu vafo,
Ona allasidan olingan axir.
Allala o'g'limni, allala, erkam,
Bizdagi xislatlar o'tsin unga ham.

Shoir ushbu she'rni o'z ayoliga, zohiran barcha suyukli onalarga baxshida etgan. Har kecha to'ng'ich farzand bo'lmish go'dak nolasi onaga uyqu bermaydi. Ona esa mijja qoqmasligi, uni tinchlantirishi va uxlatishi zaruratdir. Lekin, bunday bezovtalik takrorlanaverishi, kishi sabriga katta ta'sir ko'rsatadi. Shundoq ham kunduzi sababi ro'zg'or deya, yurgan ayolni uyda go'dakni tinchlantirish uchun muhim fiziologik energiya manbasi bo'lgan uyqudan kechishi katta matonat talab qiluvchi harakatdir. Biroq, biron mehribon ona, suyukli o'zbek ayoli nola ila noshukurlik qiladimi? Yoki go'dak bezovtaligini ixtiyorli ravishda e'tibordan chetda qoldiradimi? Yo'q, u borligi, farzandini erkalik bilan allalaydi. Shoirni o'zbek ayollaridagi u hislat sevishga, ular uchun qalbni qurbon etishga chorlamoqda. Go'dakka esa ota va onadagi bor yaxshiliklar unga o'tib, fazilatli bo'lib voyaga yetmoqqa tilakdosh bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Namangan adiblari to'g'risidagi ma'ruza matnlari
2. Habib Sa'dulla ijodiga bag'ishlangan ma'ruza matnlari
3. Shoirning ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan ijodiy namunalari